

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI

“PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA” FAKUL`TETI

MUSIQA TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya fakul'tet dekani

____prof. R.Abdurasulov

“_____” 2014 y.

5141000-Musiqiy ta'limy yo`nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Musiqqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan
o`rni”**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Begmatov S

Ilmiy raxbar:

Haydarova N

Ishni himoyaga tavsiya etaman: Haydarova N

BMI Musiqqa ta'limi nazariyasi va uslubi

kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror

№____,____, 2014) himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:katta o`qituvchi: X.Omonov

Jizzax – 2014

MAVZU: Musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o`rni.

Reja

Kirish -----9

I Bob: O`quvchilar badiiy-estetik tabiyasida xor san`atining o`rni. -----13

1.1. Musiqa madaniyati darslari tuzulishining o`ziga xosligi. -----20

1.2. Qo`shiq kuylash jarayonida xonandalar ovozlarining sozligi ustida ishlash usullari.-----26

II Bob: Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o`quvchilarning ovoz va musiqa qobiliyatlarini shakllantirish ishlarning mazmuni. -----32

2.1. Vokal-xor malakalari jamoaviy ijrochilikning asosi.-----35

2.2. Xor jamoasi bilan ishlash jarayonida ansambllik ustida ishlashning uslubiy asoslari.-----42

Umumiy xulosa:-----

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati. -----

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika instituti
“Musiqiy ta`lim” yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Begmatov
Sirojiddinning «Musiqqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik
faoliyatining tutgan o`rni» mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy
raxbar
XULOSASI

Xor ijrochiligi ko`pchilik ijrochilarni birlashtiradi. Jamoa bo`lib kuylash jarayonida ijrochilarni uyg`unashtiradi, ularda san'atning eng nozik tomonlarini, ya'ni o`zi kuylab o`zgalarni ham eshitish, o`zgalarga ergashish, jo`r bo`lish kabi hislatlarni shakllantiradi. Xor san'atining bu xususiyati ko`pchilik, ba'zan necha yuzlab ijrochilarni bir g`oyaga uyushtirishda, yagona ijrochilik maqsadi tomon yunaltirishda, shu bilan so`z va musiqadagi mazmun, his-tuyg`uni ko`pchilik tomonidan ifoda etilishi namoyon bo`ladi.

Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo`shiqlari ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuningdek qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi. Ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bitiruvchi kurs talabasi Begmatov Sirojiddinning tanlagan mavzusi ana shunday jamoaviy ijrochilikda soz va ansmb l ustida ishlash bo`lib talaba ushbu ish bo`yicha izlanishlar olib bordi.

Musiqiy ta`lim bo`yicha davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturida musiqa o`qitishning mazmunining mohiyati, har bir musiqiy faoliyatda amalga

oshiriladigan ta'limiy maqsad va vazifalarga izoh berilgan. Shu o'rinda har bir o'quv ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim va malakalari ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, musiqiy faoliyatlar ichida vokal-xor tarbiyasini o'z ichiga oluvchi jamoaviy ijrochilik alohida o'rin tutadi. Bu jarayonni sifat va samaradorligi, uni tashkiliy pedagogik asoslari, jamoaviy ijrochilikning eng muhim elementlari va ular Begmatov Sirojiddin tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ish kirish, ikki bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning kirish qismidan ilmiy tadqiqotni tanqidiy negizi asoslab berilgan. Ishning birinchi bobida musiqa darslarini tashkiliy tuzulishi xususiyatlari, jamoavichilik faoliyati misolida taxlil qilib berilgan. Shu o'rinda jamoaviy ijrochilik eng muhim o'ziga xos ta'limiy qiyofasini belgilovchi vokal–xor vazifalariga to'xtalangan. Ishning ikkinchi bobida jamoaviy ijrochilik jarayonida vokal-xor malakalari xam ansambllik ustida olib boriladigan ishlar yoritilgan.

Vokal-xor masalalari turlari, ansambllik va uning jamoaviy ijrodagi ahamiyati, ansambllik turlari haqiqiy ma'lumotlar amaliy ma'lumotlar bilan har bir ifoda etilgan. Ishning xulosa qismida bajarilgan ishga qisqa ta'rif berilgan holda bu jarayonni takomillashtirish uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi bo'yicha tarbiyaviy fikrlar taqdim etilgan. Ushbu ish bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga qo'yilgan talablarga javob beradi deb xisoblayman va ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Haydarova N

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika instituti “Musiqiy ta'lim”
yo'nalishi bitiruvch kurs talabasi Begmatov Sirojiddinning «Musiqa**

madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o`rni»
mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga

TAQRIZ

Begmatov Sirojiddinning «Musika madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o`rni» mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishi hozirgi kunda umumta`lim maktablaridagi musika ta`limi va tarbiyachiligining eng muhim faoliyatidan biri nazariy va amaliy negizini taqdim qilish bilan xarakterlidir.

Musika darslarida qo`shiq kuylash vokal kuylash uslubiga tayanadi va nihoyatda murakkab pedagogik, psixologik va fiziologik tayyorgarlikni talab qiladi. Muallif ushbu ish mazmunida mana shu murakkab jarayonni yetarlicha tavsifini bera olgan.

Shunga ko`ra bu jarayonni samarali kechirish uchun xizmat qiluvchi ilg`or ish uslubi shakllarini o`zining amaliyot ish tajriba va xulosalari asosida yoritib bergan.

Ilmiy tadqiqot ishida vokal-xor tarbiyachiga oid ilmiy-uslubiy ishlar, to`plangan tajribalarga ham o`rin bergan holda hozirgi kundagi holati ham e`tabor qaratilgan.

Tadqiqotning yana bir muhim amaliy ahamiyatiga molik tomoni, unda o`quvchilar vokal-xor malakalari va ansambl bo`lib kuylash masalalarini shakllantirishning o`ziga xos yo`llari, ish uslublarini taqdim etilganligidir.

Bu esa mazkur ish bilan tanishish orqali ushbu yo`nalishdagi ta`limiy ishlarni yanada takomillashtirish imkoniyat beradi deb o`ylashga asos bo`la oladi.

Ishning apparat qismi negizi puxta ishlangan, maqsad va vazifalar to`g`ri belgilangan.

Xulosa qilib aytganda Begmatov Sirojiddin tomonidan bajarilgan «Musika madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o`rni» mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishi uni bajarish bo`yicha nizom talablariga javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi

kafedrası katta o'qituvchisi:

H.Nazarov.

**Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika instituti “Musiqiy ta'lim”
yo'nalishi bitiruvch kurs talabasi Begmatov Sirojiddinning «Musiq
madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rni»
mavzusidagi Bitiruv Malakaviy Ishiga**

TAQRIZ

Vokal-xor malakalari jamoaviy qo'shiq kuylash, ya'ni xor san'ati ijrochiligida uni o'ziga xosligini belgilovchi omillar hisolanadi. Ular xorshunoslik nazariyasida 6 turga bo'linadi va ular ichida ansambllik ham alohida o'rin tutadi.

Begmatov Sirojiddin o'zining mazkur bitiruv malakaviy ishida vokal-xor malakalarni tasnifini keltirib, ularning har birining bajaradigan vazifalarini taxlil qiladi. Shu jarayonda musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilikning o'rni va ahamiyati, ansambllikning turlarini batafsil bayon etib beradi.

Har bir o'ziga xos o'qitish nazariyasi va metodikasi bo'lganidek, musiqiy ta'lining ham har bir bosqichlari bo'yicha o'ziga xos o'qitish uslublari mavjud.

Mazkur tadqiqot ishida umumta'lim maktablari "Musiqa madaniyati" darslarini jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rni, ansambllik ustida ishlashning shakl va usullari, amaliy ma'lumotlarning mazmuni yoritib berilgan.

Ansambllik xor ijrochiligini sifatini belgilovchi xususiyat bo'lib ansambllik bo'lmagan ijro tinglovchida badiiy – emotsional ta'sirchanlik his-tuyg'ularni uyg'ota olmaydi. Natijada ansambllikning badiiy qiymati yo'qoladi.

Jamoaviy ijro faqat jo'rovozlikdan iborat bo'lmay, uning tempi, diksiya, intonatsiya, garmoniya, dinamikasi kabi turlari mavjud. Ushbu ansambllik turlarini barchasi asar ijrosida mujassamlashgan taqdirda asarni badiiy ijrosiga erishilgan hisoblanadi.

Mazkur ishda bularning barchasi ilmiy asosiy fikrlar asosida yoritib berilgan. Shu bois ham mazkur bitiruv malakaviy ishini BMI nizomi talablari asosida yoritilgan deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

Jizzax shahar 1-sonli Bolalar musiqa

va san'at maktabi direktori:

G.Begbo'tayeva.

KIRISH

Istiqlol sharofati bilan jamiyatimizning ma'naviy qiyofasida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz boy madaniy me'rosimiz tarixiga qiziqish uni har tomonlama o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu jarayon ma'naviyatning turli sohalarida o'zining ifodasini topmoqda. Nohaq unutilgan bobolarimiz me'rosini qayta o'rganish ulug' ajdodlarimizning tavallud kunlarini nishonlanishi bunga aniq misoldir. Madaniyatimizning buyuk homiysi Amir Temur va ulug' allomalarimiz Ma'naviyat- nisbiy tushuna bo'lib inson qadr qimmat qadryati kabi tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Prezidentimiz ma'naviyatga shunday fikr bildirganlar "Biz halqimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" degan so'zlaridan ilhomlanib ularning baxtli yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda mustaqil rivojlanish yo'liga o'tilishi bilan hayotimizning barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar amalgam oshirildi.

Barcha fanlarda bo'lgani sari musiqiy ta'limni ham milliy negizida yangitdan shakllantirish asosiy vazifa qili qo'yildi. Shunga ko'ra musiqa bo'yicha yangi o'quv dasturlari, darsliklar yaratildi va bo'limlarni takomillashtirish bo'yicha ishlar hozirgi kunda ham qizg'in davom etmoqda.

Albatta, yosh avlodni milliy ma'naviy ruhda tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar va darsliklar milliy musiqiy ta'limning mazmuni va mohiyatini belgilab berish bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki musiqa darslari boshqa fanlardan farqli o'laroq, uch asosiy va boshlang'ich sinflarda yana ikki qo'shimcha faoliyatlar asosida tashkil etiladi. Bulardan uchtasi eng muhim va yetakchi faoliyatlar bo'lib, bular musiqa tinglash,

musiqi savodi va jamoaviy ijrochilik ya'ni xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatlaridir.

Mana shu uch faoliyat mazmunida butun musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari mujassamlashadi. Shu bois ham darsning to'laqonli va maqsadga muvofiq bo'lishi, mana shu uch faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga bog'liqdir.

Kuzatuvlarimizda biz duch kelgan kamchilik va muammolar ham akasariyat mana shu uch faoliyat bilan bog'liqdir.

Bizning nazarimizda bunday kamchiliklarni yuz berishida eng avvalo musiqa o'qituvchilarining cholg'u va qo'shiq ijrochiligi, musiqa o'qitish metodikalari yetarlicha tayyorgarliklarga ega emasliklari eng asosiy sabablardandir. Masalan: sinfda o'quvchilar bilan xor bo'lib qo'shiq kuylash juda qiyin va mashaqqatli pedagogik jarayonlarni talab qiladi. Jamoaviy ijrochilikka xos malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bu jarayonda asosiy maqsad qilib qo'yilishi zarur.

Bunday malakalarni hosil qilmasdan turib, jamoaviy ishtirokchilikning sifati va badiiy xususiyatlari haqida so'zlash mumkin emas. Shu tufayli biz biiruv malakaviy ishimiz mavzusini jamoaviy ishtirokchilik faoliyatida eng muhim bo'lgan vokal-xor ishlarini tashkil etish va uning negizida eng muhim o'rin tutuvchi ansamblilik ustida olib boriladigan ishlarni nazarda tutgan holda. "Musiqi madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rni" deb tanladik. Bolalar xor ishtirokchiligi bo'yicha juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari, oquv, uslubiy qo'llanmalar, xorshunoslikka oid manbalarni kuzatuvlarimizda shu narsaga ishonch hosil qildikki bu yo'nalishda, ya'ni bolalar xor ishtirokchiligiga oid mavzularda ko'plab ishlar qilishgan bo'lishsadi, aynan ansamblni ustida ish olib borish metodikasi alohida atroflicha ilmiy tahlil qilmagan. Bu esa tanlangan mavzuni musiqa pedagogikasi uchun o'ziga xos dolzarb muammoni tadqiq etishga qaratilganligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti - qilib umumta'lim makatblari musiqa madaniyati darslari olindi.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti - umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslaridagi jamoa bo'lib qo'shiq kuylash vokal-xor malakalari, shu jumladan ansamblning ustida ishlash jarayonidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib qo'shiq kuylash jarayonida o'qituvchilarni vokal-xor ijrochilik sifatlarini shakllantirish hamda xor jamoalarini tashkil etishning shakl usullari bo'yicha olib borilgan o'quv tarbiyaviy ishlarni ilmiy, nazariy jihatlarini tahlil qilish bilan shu jarayonda vokal-xor ishlarining eng muhim tarkibli qismlaridan hisoblanmish ansambl ustida ish olib borishning shakl va usullarini yoritib borishdan iboratdir.

Ilmiy ishimiz maqsadi yo'lida quyidagicha vazifalar belgilanadi:

1. Mavzuga oid ilmiy, uslubiy, pedagogika, san'atshunoslikka oid manba'larni o'rganish va tahlil qilish
2. Umumta'lim maktablarida xor jamoalarini tashkil etish va musiqa darslarida jamoaviy ijrochilik bo'yicha olib boriladigan ishlarni ahvolini kuzatish.
3. Soxa mutaxassislari, tajribali o'qituvchilar, xor rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazish.
4. Xor jamoasida ansambl ustida ishlash bo'yicha samarali ish usullarini sinovdan o'tkazish.
5. Tajriba sinov ishlarini natijalari asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.
6. Izlanishlar mazmunini iroda etuvchi materiallarni bitiruv malakaviy ish holiga keltirish va himoya qilish.

Ishni bajarish davomida quyidagi tadqiqot materiallaridan foydalaniladi: kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, suhbat, savol-javob, anketa-so'rov, tajriba-sinov o'tkazish, matematik statistika.

Ilmiy tadqiqotning metodologik asosi: bo'lib quyidagi manba'lar hizmat qiladi: O'zbekiston Respubliasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, darsliklar, musiqa pedagogikasi, nazariy va orshunoslikka oid adabiyotlar ilomiy uslubiy manbalar.

Ishning ilmiy amaliy ahamiyati: mazkur ishni bajarish davomida erishilgan natijalar. Xulosa va tavsiyalardan umuta`lim maktablari, maktabdan tashqari muassasalarda bolalar tomoshalarida olib boriladigan o`quv-tarbiyaviy ishlarda foydalanish mumkin. Shuningdek unda ma`ruza matnlari, ilmiy maqola, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yozishda ijodiy foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi, kirish, ikki bob, ikki paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat tarzda bajariladi.

I Bob: O`quvchilar badiiy-estetik tabiyasida xor san`atining o`rni.

Xor ijrochiligi hozirgi vaqtda keng tarqalgan, umumiy ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsining asosini tashkil etuvchi, musiqa ilmgohlarida, musiqa-pedagogika fakultetlarida asosiy fanlardan biri bo`lgan, havaskorlik va professional san'atda eng demokratik va ommaviy xarakterga ega va taraqqiy qilgan san'at turidir.

Boshqa san'at turlari kabi u ham kishilarning hayoti bilan chambarchas bog`liq bo`lib, o`zida kundalik hayotni, davr ruhi va nafasini mujassamlashtiradi, kishilarni g`oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Uning boshqa san'at turlaridan farqi eng muhim xususiyat uning ommaviyligidir.

Xor ijrochiligi ko`pchilik ijrochilarni birlashtiradi. Jamoa bo`lib kuylash jarayonida ijrochilarni uyg`ulashtiradi, ularda san'atning eng nozik tomonlarini, ya'ni o`zi kuylab o`zgalarni ham eshitish, o`zgalarga ergashish, jo`r bo`lish kabi hislatlarni shakllantiradi. Xor san'atining bu xususiyati ko`pchilik, ba'zan necha yuzlab ijrochilarni bir g`oyaga uyushtirishda, yagona ijrochilik maqsadi tomon yunaltirishda, shu bilan so`z va musiqadagi mazmun, his-tuyg`uni ko`pchilik tomonidan ifoda etilishi namoyon bo`lapdi.

Xor san'ati tinglovchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan birga ularni xalq qo'shiqlari ijodiyoti durdonalari zamonaviy mavzulardagi asarlar, shuning qardosh xalqlar, rus va chet el klassik vokal-xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi. Ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bu shunday san'atki u doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq mintaqalar xalqlari musiqa madaniyati shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab kelgan.

Xor san'ati uzoq tarixga egadir. Qadim zamonlardan kishilar o'z orzu-umidlari, xis-tuyg'ularini qo'shiq kuylash, raqs, pantomima (badan harakati) qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati, maishiy turmushi, an'anaviy marosimlari bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ma'lumki an'anaviy marosim qo'shiqlari u yoki bu marosim munosabati bilan to'qilgan va ko'pchilik orqali jo'r bo'lib, xor tarzida ijro etilgan. Bunga o'zbek xalqining ham turli marosimlar bilan bog'liq qo'shiqlarni misol keltirish mumkin, (kelin yor-yorlari, yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq «Sust xotin», g'alla yanchish, to'y, aza, aytishuv va hokazo).

Xor san'atining paydo bo'lishi bevosita Cherkov qo'shiqchiligiga borib taqaladi. Aytish mumkinki, cherkov qo'shiqchiligi asosan unison (bir ovozli) bo'lib, 10-asrlardan undan ikki ovozlik paydo bo'la boshlaydi. Uyg'onish davriga kelib etakchi evropa davlatlarida ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlandi.

15-16 asrlarda D.Palestrina, O.Lasso, K.Janekin, J.Depre kabi polifonist kompazitorlar yashab ijod davrida xor san'atining ko'p ovozlik shakllari va akapella ijrochilik uslubi keng ravnaq topdi.

Podshoh, knyaz, pomeschiklar saroylarida xor kapellalari tashkil topa boshladi. Bular professional xorlar bo'lib turli bazm, o'yin kulgi kechalarida xizmat qilgan. Keyinchalik 17-19 asrlarda Bax, Tendel, Betxoven, Lyuk, Faydn, Motsart, Verdi, Bize, romantik kompazitorlardan Shubert, Shuman, Mendelson, rus kompazitorlaridan Glinka, Rimskiy-Korsakov, Musorgskiy, Chaykovskiy, Borodin, Kyui, Tanazov va boshqa o'z ijodlari bilan xor san'tini yuksak cho'qqilarga ko'tardilar.

Xor san'ati o'z rivojida musiqa san'ati turi sifatida ikki yo'nalishda – akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib keldi. Kuylash usuli, tovush hosil qilish xarakteri, ovozlarning tembr turlanishi, ijrochilik texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab xor ijrochilik uslubi aniqlanadi. Akademik xorlar asosan klassik kompazitorlarning vokal-xor, opera-xor asarlarining ijrosi yaxshi namunalarini ijro etish va targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Xor ijrosi dirijyor boshchiligida, f-no yoki simfonik orkestr jo'rligida bo'ladi.

Kuylash usuli niqobdor holda, bo'lib, tovush ravon, ovozlari xor partiyalariga aniq bo'lgan bo'ladi.

Xalq xorlarining asosiy vazifasi ilgari yaratilgan xalq qo'shiqlarini zamonaviy tarzda qayta ishlangan namunalarini, shuningdek kompazitorlarning xalq xorlari uchun yaratilgan original asarlarini ijro etish va targ'ib qilishdan iborat.

Xalq xorlari dirijyorsiz, bayan yoki boshqa xalq cholg'u asboblari jo'rligida qo'shiqlar ijro etishadi. Kuylash usuli ochiq nutqqa yaqin, xalq ijrochilik an'alariga asoslangan, ovozlarga aniq bo'linmagan bo'ladi. Unda raqslar ham ishtirok etilishi mumkin.

Bizga xor sanxati asosan rus xor san'ati va madaniyati ta'siri orqali kirib kelgan ekan, shu bois rus xor san'ati tarixiga qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Rus xor madaniyati boy tarixga ega, unda xor ijodiyoti va ijrochiligi bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishda rivojlanib keldi. Shahar va krestyan qo'shiqchiligi, ma'rifatli qo'shiq sevuvchilar xorlari, maktab xorlari, professional cherkov xorlari va nodiniy yo'nalishdagi xorlar, opera xorlari shular jumlasidandir.

Xalq xil poetik mazmundagi qo'shiqlarni oilaviy bo'lib ijro qilish formasi qadimdan ma'lum. Rossiyada xor madaniyati nota yozuviga qadar og'zaki an'anaviy shaklda rivojlanib keldi va u ma'lum darajada cherkov qo'shiqchiligi bilan bog'liq bo'ldi. Lekin cherkov musiqasi xalq qo'shiqlari ta'sirida shakllanganligini ham unutmasligimiz lozim. Qadimiy rus xalq qo'shiqchilik ijodiyoti ilk professional musiqachilar-skomoroxlar (qiziqchilar) bilan bog'liq. Ular xalq o'yinlari va xor bo'lib aytishni uyushtirar edilar. Skomoroxlar qo'shiqlari asosan keyinchalik xorovot qo'shiqlari shakllana bordi.

15-16 asrlarga kelib Rossiya hayotida cherkov ta'siri kuchayadi. Cherkov xalq qo'shiqchiligiga va skomoroxlarga qarshi turadi. Cherkovlarga xonanda d'yaklar olinib, cherkov xor qo'shiqchiligi uchun o'qituvchilar, regent (boshliq) lar tayyorlana boshlaydi.

Birinchi professional cherkov xorlari Kiev Rusi Xristian dinini qabul qilish davridayoq tashkil etila boshlandi. Shu davrdan boshlab cherkov qo'shiqchilikni o'rgatuvchi maktablar paydo bo'la boshladi. Xor ijrochiligi ayniqsa Moskva Rusi davrida ravnaq topdi. 17-18 asrlarga kelib, ko'pchilik knyazlar, dvoryan va pomeshchiklar o'z qaramog'ida xor va orkestrlar tashkil qiladilar. Bunday xorlarni metsenatlar (Musika –xor san'atini sevuvchilar) xorlari deb yuritilgan.

Rossiyada opera san'atining rivojlanishi bilan opera – xor madaniyati ham o'sdi. M.Glinka, N.Rimskiy-Karsakov, M.Musorskiy, A.Boroden, P.Chaykovskiy va boshqa qator kompazitorlar ijodi opera xor janrini juda boyitdi.

19-asrning ikkinchi yarimidan nodiniy, ya'ni ma'rifat yo'nalishidagi xor ijrochiligi faoliyati kuchaya bordi. Shu davrdan boshlab Rossiyada professional xalq xorlari ham tashkil topa boshladi. Birinchi professional xalq xorini Yaroslavl gubernasidagi kristyan qo'shiqchisi I.Molchonov tuzgan edi. I.Molchonov o'zi o'tkir musiqaviy qobiliyat sohibi bo'lgan. U yuzlab xalq qo'shiqlarini yod bilar va xorga ham yoddan o'rgatar edi. 19-asr ohirida A.Arxangelskiyning professional xori (1880 yilda tuzilgan) o'z kontsertlari bilan nafaqat Rossiyada, chet ellarda ham tanildi. U xor tarixida birinchi bo'lib (1884-1887 yillar) bolalar ovozi o'rniga ayollar ovozini kiritdi. Uning xori rus, chet el klassik asarlari va qo'shiqlaridan iborat boy repertuarga ega edi. Arxangelskiy yuqori malakali dirijyor, kompazitor va pedagog bo'lgan.

Rus xor san'ati 20-asr boshlarida yana ham taraqqiy etdi. V.Bulichev, I.Yuxov xorlari, kompozitor G.Davidovskiyning ukrain xalq xorlarini tashkil qiladi. I.Pyatnitskiy (1864-1927 yillar). 1911 yilda Voronej, Rizadi, Smolensk krestyanlaridan iborat o'zini mashhur rus xalq xorini tuzadi va katta muvaffaqiyat qozonadi.

Rossiyada opera-xor madaniyatini o`shishi bilan birga akapella xor san'ati janri ham shakllana bordi. Birinchi bor jo`rsiz xor asarlari 19-asrning 30-40 yillarida dunyoga keldi. Shu yillar A.Alyabev xorlari, A.Dogamejskiyning «Peterburg serenadalari» xor sekli yozilgan edi. R.Korsakov, Musergsiky, Chaykovskiy, A.Lyadov, S.Taneev, A.Kastalskiy, S.Kyun kabilar orginal xor asarlari yozish bilan ko`plab xalq qo`shiqlarini jo`rsiz xor uchun qayta ishladilar. Shuni ham eslash kerakki rus xalq qo`shiqlarini 18-asrdan qayta ishlash boshlangan edi, kompazitorlar E.Fomin birinchi bor rus qo`shiqlarini qayta ishlab opera kuylagan edi.

Oktyabr to`ntarishi rus va shu bilan birga shu paytda sobiq SSSR tarkibida bo`lgan xalqlar musiqa madaniyatida ham jiddiy o`zgarishlarga olib keldi. Cherkov davlatdan (shuningdek maktab va boshqa muassasalardan) ajratildi. Peterburg saroy xonandalar kapellasi, Moskva Sinodal xorlari qayta tuzildi. Pyatnitsiy, Arxangelskiy, Yuxov kabi demokratik yo`nalishdagi xorlar asosida yangi professional xorlar tashkil etildi, 20 yillarda ommaviy xor havaskorlik harakati boshlanib ketdi. Shaharlarda madaniyat uylari, klub, zavod va fabrika, o`quv yurtlarida xalq va akademik yo`nalishdagi havaskorlik xor, ashula va raqs ansambllari tuzila boshlandi. Ular repertuaridan inqilobiy qo`shiqlar ustunlik qilar, xalq qo`shiqlari va ommaviy qo`shiqlarga ham nisbatan o`rin berilar edi. Kompazitorlar ijodi namunasi bo`lgan asarlar asosan qizil armiya, Lenin, partiya, komsomolga bag`ishlangan, kommunistik mafkura bilap yo`g`rilgan edi. Bu davrda A.Aleksandrov, Davidenka, D.Vasiliy, Buglay, M.Krasev, M.Koval, B.Shixterlar ijodi keng yoyildi. 30-yillardan xalq qo`shiqlarini qayta ishlash, orginal asarlar yozish rivojlandi. A.Kostovski, Vik, Kalinikov, G.Labochev, P.Chesnakov, A.Glazunov, A.Aleksandrov, A.Egorovlar bu borada samarali ijod qildilar.

1927-1938 yillar mobaynida I.Nemtsov boshchiligida o`tgan Leningrad olimpiadalari butun Itfioq bo`ylab tarqaldi. 1936 yilda Moskvada o`tgan xor olimpiadasida ko`plab professional va havaskorlik xorlari qatnashdilar. Qadosh respublikalarda xor madaniyati rivojlana bordi. Urush yillarida bir necha

professional xor jamoalari tuzildi. Davlat rus xori (1942 yil) respublika rus xor kapellasi (1942 yilda, 1977 yil A.Yurlov nomi berilgan) Ural rus xalq xori (1943 yil), Estoniya erkaklari xori (1944 yil). Urush mavzusiga ko'plab etuk badiiy asarlar yaratildi. D.Kobalevskiyning «Farxadstroy» kontatalari, ommaviy qo'shiqlardan A.Aleksandrovning «Svyashennaya voyna», S.Sedoyning «Solovi», «Vecher na reyde», V.Zaxarovning «Oy tumani moi» kabilar yaratildi va shuxrat topdi.

Urushdan keyingi yillarda ko'plab yirik formadagi vokal-simfonik asarlar, operalar, poemalar yaratildi. Xor madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan I.Dzerjenskiy «Tinch oqar don», «Ochilgan qo'rik», D.Shostakovichning «Katerina Izmaylova», S.Prokofevning «Urush va tinchlik», M.Kovalning «Emelyan Pugachev», D.Kovalevskiyning «Taras oilasi», T.Xrennikovning «Ona», U.Xojibekovning «Gurugli», K.Dankevichning «Bog'dan Xmel'nitskiy», S.Yudakovning «Maysaraning ishi», M.Ashrafiyning «Bo'ron», Sh.Sayfutdinovning «Pulat va Gulruh» kabi operalari yaratildi. Havaskorlik xor san'ati butun dunyo festivallarida sovrinlarni qo'lga kiritdilar. Masalan: 1969 yilda Litva erkaklari xori, 1971 yilda Tallin kamer xori, 1974 yilda Rigadagi «Ayesol» kamer xori, 1975 yilda Moskva kontservatoriyasi kamer xorlari Italiyada o'tgan Gvido Aritstso xor konkursi laureatlari bo'ldilar. Moskva yoshlar va talabalar xori 1975 yilda Verna (Bolgariya) shahrida xor konkursi laureanti bo'ldi.

Tallinda butunittifoq va chet el xor jamoalari ishtirok etgan xor konkursi (1972-1975 yillar) bo'lib o'tdi. Bu festivallarda Tallin kamer xori, Lenangrad shahar Kapranov madaniyat saroyi ayollar xori, Estoniya fanlar akademiyasi ayollar xori, Qirg'iziston O'sh pedagogika instituti xor laureanti bo'ldilar. 1977 yilda sobiq SSSR da 175 ming havaskorlik xori ro'yhatga olingan.

1.1. Musiqa madaniyati darslari tuzilishining o'ziga xosligi.

Musiqa fanining o'ziga xos xususiyati shundaki dars davomida olib boriladigan talimiy faoliyatlar mustaqil jarayonlar ko'rinishida bo'lish mumkin,

bilan birgas ularni bir-biri bilan uzviy aloqada o`zaro bog`liq ravishda olib boorish ushbu fanni o`qitilishi qonuniyatdan kelib chiqadi. Musiqa tinglash, qo`shiq kkuylash, musiqa savodi va boshlang`ich sinflarda musiqaga ritmik jo`r bo`lish hamda bolalar cholg`u asboblariidan ijro etish o`quvchilar tomonidan musiqiy nazariy bilimlarni ko`nikma va malakalarni to`liq o`zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda biror – bir faoliyat birinchi o`ringa chiqib kelishi ham mumkin. Lekin, darsning tuzulishi asosan, musiqiy ishtirokchilik bilan belgilanadi. Aynan mana shu ijrochilik, ya`ni qo`shiq aytish malakalarini egallash uchun nota yozuvi, dinamik belgilar, drijiyorlik qoidalaridan xabardor bo`lish zarur. Jamoa bo`lib kuylash jo`ra yonida o`quvchilarda jamoatchili, do`stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun bir sinf jamoa bo`lib, bitta organizmga birlashib ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqaviy qobiliyati sust bo`lgan o`quvchilar faol yaxshi musiqiy qobiliyatga ega o`quvchilarga ergashadilar.

Yangi avlodni tarbiyasi, kelajak vorislarini tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. “Ta`lim to`g`risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda qonunlarni e`tirof etilishi qobiliyati va iste`dodli yoshlarni to`g`ri tarbiyalash jarayoni jamiyatda o`z o`rnini topishga va ma`suliyatni his etishga o`rgatadi. Direjyor asar musiqasining ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashashini talab qiluvchi, sabr-bardosh talab qiluvchi ma`suliyatli kasbdir.

Bu sohaning murakkabligi shundaki, xor jamoasining nafaat mukammal ijrosi balki uning sirlarini ham bilishi kerak. Jamiyat ma`naviyatining yuksaltirish-davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi hisoblanadi.

Direjyorlik- bu qo`shiq aytish ya`ni royal, skripka yoki boshqa cholg`uni chalish kabi ijrochilik san`atidir. Shu bilan birga direjyorlik ijrochilik sana`ting boshqa turlaridan jiddiy farq qiladi. San`atlar ichida eng yoshi va eng kam o`rganilgani direjyorlik san`ati hisoblanadi.

Direjyorlik amaliyoti uning nazariy ancha orta qoldirdi. Biroq aynan nazariyaga bo`lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa direjyorlikka o`rgatish ishiga ehtiyoj katta. Direjyorlik sohasida ta`lim berish uchun nazriya negiz

yaratishga doir izlanishlar tinimsiz davom etayapti. Direjyorlik faqat ichki tayyorgarlikga asoslanadi va bunga alohida qobiliyatli insonlar qodir. Direjyor ko'plab bir-biridan farq qiluvchi insonlar bilan ishlaydilar. U o'z oldida utrgan xor yoki orkestr a'zolarini bir jamoaga to'plab ular shunday birlashtirishi kerakki bu jamoaga to'plab, ular shunday birlashtirilishi kerakki, bu jamoa huddi tozalangan yaxshi musiqa kabi bo'lishi kerak.

Aytish joizki, direjyorga o'z sana'ti haqida yozishdan ko'ra direjyorlik qilish osonroqdir albatta. Direjyorlik faoliyatini ko'zga ko'rinuvchi qismini tasniflash qiyin. Chunki u yoki bu qo'l harakatini musiqasiz so'zlar bilan tavsitlagandan ko'ra uni musiqa fanida ko'rsatib berish osonroqdir. Shuning uchun direjyor ishining o'ziga xosligi orkestr yoki xor rahbari sifatida uning zimmasga yuklatilgan vazifaning naqadar murakkabligi hisobga olgan holda aytish mumkinki, bo'lajak direjyor ushbu murakkab va ma'suliyatli ishda muvafaqqiyat qozonish imkonini beradi. Katta musiqiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lish shart.

1.2. Qo`shiq kuylash jarayonida xonandalar ovozlarning sozligi ustida ishlash usullari.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini jamoa bo`lib qo`shiq kuylashga o`rgatish umumiy o`rta ta`lim maktablarini musiqa o`qituvchisi zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Jamoa bo`lib kuylash o`quvchilarda bir qator ijobiy jihatlarni jumladan, ularni ahloqiy jihatdan shakllanishiga katta ta`sir etadi. Birinchidan qo`shiq aniq bir mavzugaqaratilgan bo`ladi. Ikkinchidan, o`quvcilar qo`shiqlarda aks etgan o`zga insonlarning ruhiy holatini,uning kechinmalarini his qiladilar. Jamoa bo`lib kuylash nafaqat estetik didli balki o`quvchilarning tashabbuskorligini ijodiy qobiliyatlarini, tarbiyalaydi va musiqiy qobiliyatlar (qo`shiqchlik ovozi, usulni his etishni, musiqiy xotira)ni rivojlantiradi, qo`shiqchilikmalakalarini, musiqiy qiziqishlarini oshirib emotsional hamda vokal-xor malakalarini orttiradi. Jamoa bo`lib kuylash inson hayotida jamoatchilikning o`rnini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi va ularni tartibga soluvchi ta`sir qiladi, hamda jamoatchilik, do`stlik hislarini shakllantiradi. Jamoa bo`lib kuylash darslarida ijro etish uchun musiqiy asar tanlashda kuylanadigan materialni to`g`ri tanlash asosiy shartlardan biridir.

“Direjyor” so’zi turli tillarda turlichat talaffuz qilinadi. Nemislar “Dirider” italyanlar “Diridente”, fransuzlar “Shef orkestri”, inglizlar “konduktir” deyishadi. Har qaysi tilda ham bu so’z ma’nosi boshliq, director, rahbar ma’nolarini beradi. Direjyor bu jamoaning hayoti faol va yaxshi shakllantirilan bo’lishini nazorat qiladi. Direjyor ijrochilar musiqiy asarni uyg’unlikda ijro etsinlar, ular asarni birga boshlab, birga tugatsinlar, pauzalarni vaqtiga qarab ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta’minlaydi. Direjyor xor ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirish uchun belgi berishi lozim.

Direjyor kasbi juda murakkab va murakkabdir. Direjyor u juda aqliy mehnat doimiy jismoniy quvvta talab qiladi. Demak direjyor mustahkam salomatlikkka, chidam va bardoshga ega bo’lishi zarurdir. Direjyor o’zi avvalo musiqiy asarning g’oya va mohiyatini chuqur anglashi, uning maqsadlarini chuqur anglashi lozim. Barcha musiqachilar kabi direjyor ham musiqaning elementar nazariyasini, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi juda muhimdir.

Shuning uchun u inson ovozi haqida umumiy ma’lumotga ega bo’lishi, cholg’ushunoslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerali sohalardan behabar bo’lmog’i lozimdir. Direjyor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o’qituvchi, instructor bo’lishini ham unutmasligi lozim. Bundan tashqari direjyor alohida qobiliyatga ega, ma’naviyatli, tashabbuskor, qattiyatli, intizomli, tashkilotchilik ite’dodi uyg’unlashgan bo’lishi kerak.

Direjyor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo’lishi, shuni aytish joizki, mardlik, halollik va prinsipallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy direjyorni asavvur qilib bo’lmaydi.

Xorshunos olimlarning ilmiy kuratishlari shuni ko’rsatadiki, zamonaviy xorlarni to’g’ri boshqarish uchun obyektiv va subyektiv tashkiliy omillarni hisobga olish zarurdir. Xor rahbarlari havaskorlik xorlari bilan ishlash jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishlari uchun xonandalarning orzu-istaklari va ehtiyojlarini tushuna bilish lozimdir. Shundagina ular jamoada jiddiy sog’lom ijodiy muhitni yuzaga keltira oladi, puxta va to’g’ri tashkil qilish xorni ijodiy kamolotga yetaklaydi. Buni tashkil qiluvchi usullar quyidagilardan iborat:

- Xor uchun moddiy va ma'naviy zamin tayyorlash.
- O'z-o'zini boshqarishni bilish;
- Mashg'ulotlarni muntazam yo'lga qo'yish;
- Intizomli bo'lish;
- Jamoa ishlarini muntazam yo'lga qo'yib rejalashtirish va amalgam oshirish;

Tartibli va rejali ravishda ish olib boorish rahbarning bilimdonligiga va tashkilotchiligiga bog'liq. Xor ishining tashkiliy tomonlaridan biri uning haftalik va oylik ish normasidir. Ular 2-3 marotaba amalgam oshiriladi. Xor bilan ishlaganda, xor guruhlariga navbat bilan dam berish lozim. Masalan erkaklar guruhi bilan ishlaganda esa alohida partiyalar bilan ishlash lozim. Umumiy xor bilan ishlaganda esa shu yo'l bilan yoki xor ishtirokchilariga 3-4 minut o'tirgan joyda dam berish ularga asar matni yoki ijrodagi ba'zi tomonlarini tushuntirib yana ishni davom ettirish kerak.

Ovoz toliqishlaridan yo'l qo'ymaslikka xor ishtirokchilarini zeriktirmaslik kerak. Ovoz toliqishidan asrash lozim. Buning uchun rahbar mashg'uloti qiziqarli o'tkazish oldiga qo'yilgan vazifani bajaraman deb xorni qiynamasligi kerak. Mutoyiba qilib xonandaning charchog'ini chiqara bilish lozim. Xor bilan ishlash muntazam ravishda olib boorish kerak. Shundagina xor ijodiy yutuqqa erishish mumkin.

Mashg'ulot yo'l bo'yi imkoniyat berishga o'zgartirmay olib boorish kerak. Xor jamoalarini turli xil turlari bor. Bular ayollar xori, erkaklar xori, bolalar xori va aralash xorlar. Xor asari jiddiyroq bo'lsa uni o'rgatish osonroq bo'ladi. Birinchidan xor har bir xonandalarni o'z ovoz guruhi (partiyasini) kuyini chuqqurroq idrok etadi va ikkinchidan rahbar turli bir xonandaning ijrosini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Har bir rahbar navbatdagi mashg'ulotni o'tkazish rejasini oldindan tuzish shart. Xor ishini tashkil qilish bilan birga u rejalashtiriladi, hamda butun qilinadigan ishlarni qayd qiladi. xor jamoasining barcha faoliyatini aks ettiruvchi yillik ish rejasini tuziladi. Yillik reja asosida har bir mashg'ulot rejasi tuziladi va

shunga asoslanib darslar deb boriladi. Ish rejasini repertuar sohasiga yil davomida o'rganiladigan asarlar va mualliflarning nomlari yoziladi.

Dirijyorning o'zi, avvalo ,usiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur nanglashi, shundan so'nggina uni orkestrga yetkazib, musiqachilar uning maqsadlarini amalgam oshirishlariga erishish lozim. Dirijyor partiturasidagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani t'g'ri talqin etishi zarur. O'z ishini yaxshi bilaydigan yoki itedodsiz direjyor tomoshabin oldida, hattoki eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, hali ko'pchilikka notanish bo'lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijyor juda ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki eni avval eshitmagan tinglovchi dirijyor xatolarni bastakprniki deb o'ylashi mumkin.

Albatta, har qanday mahoratli, yuksak iqtidor sohibi bo'lgan dirijor ham yomon musiqani yaxshi qilolmaydi. Biroq musiqiy asarning noyob tomonlarini ochib berish, yoki muallif g'oyasini buzib ko'rsatgan holda, bunday xususiyatlarni yaratish-faqat dirijyorga bo'g'liq. Shu bois Rimskiy Korsakovning "Dirijyorlik-qorong'u ish" degan iborasi qaysidir ma'noda shu kumgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Barcha musiqachalilar kabi, dirijyor ham musiqaning elementar nazariyasini, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, u inson ovozi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, cholg'ushonslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerali sohalardan bohabar bo'lmog'i lozim. Dirijyor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o'qituchi, instructor bo'lishini ham unutmasligi kerak. Bu mezonlar dirijyor hoh u yosh, hoh u qari, tajribali yoki o'z faoliyatini endi boshlayotgan bo'lsin barchasidan bohabar bo'lmog'i lozim.

Albatta, dirijorlik vazifasini amaliy faoliyatsiz to'plab bo'lmaydi. Biroq bu faoliyatdan oldin, ya'ni boshlovchi dirijor orkestr yoki xor qarshisida turish huquqini qo'lga kiritguncha qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Buning uchun endi faoliyat boshlayotgan dirijor alohida qobiliyatga ega bno'lishi kerak, bu-o'ta muhimdir. Bundan tashqari u yaxshi musiqa chi bo'lishi, ya'ni musiqiy madaniyat

va bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa sadolarini yaxshi ilg'ash, ritm va temp hissi, musiqiy shakl va uslubni tushunish qobiliyatini, musiqiy did, mt'yor hissi, musiqiy xotira va tasavvur kabi ijrochi-musiqachilarga xos xususiyalardan tashqari dirijot yana bir qator alohida jihatlarga eham ega bo'lishi kerak.

Bunda avvalo qo'llarning maqsadga mu muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yuz ifodasi yordamida orkestr yoki xor az'lolariga musiqiy asarning mohiyatini yetkaza olishdir. Bunda dirijor o'zini nazorat qila bilishi, har qanday vaziyatda tezkor va ifodali bo'lishi lozim. Bularning bari dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelihi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlardan muvafaqqiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo'ladi. Dirijyorda tashabbuskorlik, qattiyatlilik, intizomlilik, tashkilotchililik istedodi uyg'unlashgan bo'lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan xushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish namoyon bo'lishi kerak.

Orkestr yoki xor bilan ishlash uchun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik xususiyatlarisizi haqiqiy dirijorni tasavvur qilish juda qiyin.

Repititsiyalarda dirijor orkestr u yoki bu musiqiy asarni ijro etishga tayyorlaydi. Bunda har bir orkestr yoki xor jamoasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Shu bois dirijor oldida turgan vazifalari ko'p bo'ladiyu, unga ajratilgan vaqt esa kam bo'ladi. Qisqa vaqt ichida orkestrga kerak bo'lgan hamma narsaga ulgurish lozim. Biroq dirijorning o'zi ham repititsiyaga muhtuju-ku, ayniqsa, agar orkestr bilan yangi musiqiy asarni birinchi bor mashq qilayotgan bo'lsa. Agar dirijor faqat orkestr uchun qayg'urib, o'zi ustida ishlash haqida unutib qo'ysa, bu uning xatosidir.

Agar dirijor o'zi haqidagina o'ylab, orkestrni tashlab qo'ysa, undanda noto'g'ri yo'l tutgan bo'ladi. Bordiyu, dirijor orkestr haqida o'ylamasa, o'zining dirijorligi, o'zining dirijorligi haqida unutib qo'ysa va faqat shunday bo'lishi kerakligi uchungina majburiy ishlasa yoki xotirasini sinash maqsadida yoddan dirijyorlik qilib, o'z harakatlarining go'zalligiga mahliyolik tug'usi bilan yashasa bundanda yomoni bo'lmaydi.

Ko'rinib turibdiki, dirijorning vazifalari ko'p va ma'suliyatli. Xo'sh, musiqa sanati oldida shunchalik katta ma'suliyatli bo'lgan sana'tkor qanday fazilatlar egasi bo'lishi kerak? Dirijor va orkestr o'rtasida "ko'zga ko'rinmaydigan aloqa" vujudga kelishi uchun zarur bo'ladigan intellektual, ba'diiy-ijodiy, professional va insoniy fazilatlarning ko'pqirrali majmuasi nimalardan topadi?

Bu avvalo keng ko'lamli musiqiy bilimlardir. Dirijor ko'p musiqiy asarlar-ularning shakli, turli davrlarga xis musiqiy tilning xususiyatlarini bilishi kerak. Orkestrning har bir musiqachisi qanday muammoga uch kelishi va uni bartaraf etish yo'lini tushunish uchun orkestrning har bir musiqa cholg'usini ya[shi bilishi shart.

Dirijor orkestr partiturasini erkin o'qiy olishi, musiqa tarixi sohasida keng bilim dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, agar tartib bilan sanab o'tsak, "iste'dod" deb atashga o'rganganmiz-asosiy ifoda vositalarga kiruvchi musiqiy ershitish, xotira temperament, tasavvur qilish qobiliyati, musiqiy shakl va absambl hissi, urg'u sergirliigi, qo'llar va yuzniing ta'biiy harakatchanligi-bularning hammasi dirijyorga orkestr a'zolariga o'zining ba'diiy maqsadlarini yetkazishga yordam beruvchi vositalardir.

Ba'zi dirijorning qo'l harakatlari erkin va plastic bo'lasada, ijrochilar ularni baribir tushunmaydilar. Buni shunday izohlash mumkin.ular o'zlarining chiroyli qo'l harakatlari bilan ma'no ifoda eta olmaydilar. Shu bois dirijyorga qo'l harakatlarning tashqi chiroyi emas, balki ularning ma'nodorligi va ishontiruvchnligi muhim. Buning eng yaxshi isbori sifatida buyuk rus kompozitori Chaykovskiyning ajoyib sirjor Artur Nikish gaqida quyidagi so'zlarni keltish joiz: "Uning dirijorligi – deb yozadi P.I.Chaykjovskiy,- Gans Fon Byulovning ta'sirchan va o'ziga xos usuliga mutlaqo o'xshamaydi. Fon Byulo qanchalik harakatchan, notinch va ko'zga tashlanuvchi harakatlari tqa'sirchan bo'lsa, janob Nikish shunchalik xotirjam nafis, ortiqcha harakatlardan holisdir.

Zamonaviy dirijorlik-yuz ifodasi va qo'l harakatlari tili sifatida insonning ko'p asrlik tajribasi bilan sinalgan muloqot vositasidan foydalanib, shakllangan. Qo'l harakati va yuz ifodasi hammaga tushunarli, serma'no va boydir. U darhol

qaytariluvchi emotsional javobga sabab bo'ladi. Qo'l jarakatlari katta hissiy-obrazli ifoda kuchiga ega; ular jahldor yoki muloyim, so'roq yoki tasdiqlovchi, iltimos qiluvchi yoki rad etuvchi, davatkor yoki taklif qiluvchi, kutib oluvchi yoki hayratlanuvchi, ogohlantiruvchi yoki tahdid qiluvchi bo'lishi mumkin va hakazo. Ijro etilayotgan musiqaning obrazli-emotsional mohiyatiga qarab u yoki bu ma'noli harakat qilinadi.

Turli drijorlarda qo'l harakatlari va yuz ifodasi (mimika)ning nisbiyligi turlicha. Aytish mumkinki, mimika, asosan kerakli emotsional (hissiy) holatni, qo'l harakatlari esa ijroning texnik detallarini boshqaradi. Mimika-drijorning obrazli fikrlashi naqadar yorqin va aniqligini namoyon etuvchi omildir. U –ma'nofdor qo'l harakatlarining doimiy hamrohidir. Zero, qo'l harakatiga hamroh bo'lgan nigoh uni ruhlantirilgan qolmay, uning ta'sirini kuchaytirib, birinchi navbatda bu harakat mo'ljallanganini ham bildiradi. Agar yuz ifodasiz bo'lsa, hatto eng aniq va nozik qo'l harakatlari ham kerakli badiiy ta'sirga ega bo'la olmaydi. Hattoki, ba'zi hollarda mimika qo'l harakatlaribi ortta qoldirib, asosiy ma'no kasb etadi.

Yaxshi dirijor bo'lib yetishish uchun ko'p narsani bilish kerak, avvalo, haqiqiy musiqachi bo'lishi kerak. Taniqli dirijor Oskar Frid aytganidek: "Eng nozik musiqiy tasavvurlarni ilga'shga qodir yurak bilan tug'ulish kerak, ana shu tasavvurlarni g'oyalarga aylantirishga qodir aqlni tarbiyalash zarur, bu g'oyalarni orkestrga yetkazish uchun esa kuchli qo'lga ega bo'lish lozim.

Mohir dirijorning sanataini orkestrdan ajratib bo'lmaydi deganimizda, biz avvalo uning ijchilar jamoasini ko'ptovushli va rang-barang yagona musiqa cholg'usi sifatida qabul qilish qobiliyatini nazarda tutiladi. Ana shu yagona musiqiy cholg'u-tirik, o'ziga xos tarzda fikr yurituvchi, his qiluvchi va yaratuvchi ijodkor-musiqachilar guruhidan iborat ekanligini doimo esda tutish kerak.

Dirijor navo, xirgoyi va ritm hissiga ega bo'lish lozim. Qachonlardir Vagner musiqiy jumlani mantiqan hirgoya qilib berishni bilmagan dirijor, to'g'ri tempo-ritmni ham topa olmasligini, musiqaning o'ziga esa uning uchun qandaydir mavhum, grammarika, arifmetika va gimnastika o'rtasida qandaydir mujmal narsa ekanligini qayd etgandi.

Dirijorning vazifasi-dorni o'z irodasiga buysundirgan holda barcha musiqachilarning musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirish, yuzta turli shxsdan o'zining har bir harakatiga qaran ish tutuvchi yagona organism yaratishdan iborat. Bunda quvonchli ijod jarayoni, ijodkorga xos va uni sana'atga ruhlantiruvchi kuchni asabiylikdan asrash lozim. Zero, ijodiy jarayonda o'zini tuta bilish , yaxshi kayfiyat, ijodga berilib sho'ng'ib ketish hamroh bo'lsa, asabiylik, o'ziga ishonmaslik, quyush qondan chiqibb ketish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

II. Bob. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o`quvchilarning ovoz va musiqa qobiliyatlarini shakllantirish ishlarning mazmuni.

Xor jamoasini tashkil etishda musiqiy qobiliyati bor, ya'ni musiqiy xotira, eshitish qobiliyati, ritm va shirali ovozga ega bo'lgan kishilar qabul qilinadi. Lekin bunday xususiyatlari yaqqol namayon bo'lmagan bolalarni ham qabul qilish mumkin. Ularga o'qituvchi pedagogic-psixologik jihatdan individual yondashib ish olib borishi mumkin. Chunki bunday bolalar ham qo'shiq aytishni hohlaydilar, ularni rad etish bilan ulardagi qiziqishni so'ndirib qo'yish mumkin. Yoinki ba'zi bolalarda bunday qobiliyatlari kechroq namayon bo'lishi mumkin, shuningdek ish, mashg'ulot jarayonida rivojlana borishini ham e'tiborda tutishi lozim. Xor mashg'ulotlariga kirishishdan oldin dastlabki paytda qatnashchilarni birinchi galda ovozlarini sinovdan o'tkazadi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi.

1. Ovozni qo'shiq aytishga loyiq, noloyiqligi.
2. Qaysi partiyaga mansubligi (ovoz turi)
3. Tembri;
4. Chidamliligi;

O'quvchilarni vokal tayyorgarligini aniqlash ham xorning keyingi ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda quyidagi jihatlar e'tiborga olinadi.

1. Intonasiyaning tozaligi (Sluxi)
2. Musiqiy xotirasi;
3. Nutqi; (So'z talaffuzi)
4. Ritmni sezish qobiliyati;
5. Musiqiylik;
6. Notani o'qiy olishi.

Ovozni tekshirish va aniqlash har-xil usul mashqlar yordamida bajariladi.

1. Major va minor uchtovushliklarini alohida-alohida aytirish.
2. Major va minor gammalarini alohida-alohida aytirish.
3. Ikki, uch tovush oralig'ini xromatik tartibda so'z bo'g'ini bilan kuylash.

4. Xar-xil intervallarni va kuyning kichik-kichik bo'laklarini ovozda qaytarish. Bundan tashqari solfedjio qilishda biror vokal yoki xor asari bir bo'lagini matni bilan kuylattirish mumkin.

O'zni qo'lga ola bilish qobiliyati, bor mahoratni ishga solish, mavjud bilimlardan to'g'ri foydalanishning birinchi shartidir. Shu bois ijrochining ijodiy mahorati, ya'ni uni artislik qobiliyati xususiyatlari va undan doydalana olish qobiliyati musiqq ijrochisiga ta'sir qilmay qoldi. Ijro jarayonida ana shu ijodiy harorrat chegalari juda aniq belgilanishi kerak. Haddan ziyod yuqori harorrat asabiylashuvga, badiiy pulsning noaniq bo'lishiga, juda past harorat esa ijodiy jarayonning jonsizlanib, samarasiz bo'lishiga olib keladi. Bulardan birinchisi ijrochini badiiy jihatdan o'zini qo'lga ola bilishdan mahrim qiladi, ikinchisi esa hissiyotlarni yo'qqa chiqaradi.

O'z vaqtida Sharl Myunsh: "Agar dirijor ichki hissiyot kuchiga, orkestr a'zolari va tinglovchilarni sehrlab qo'yisha qodir ohangraboga ega bo'lmasa, unda hatto 15 yillik mehnat va o'qish jarayoni ham insonning dirijor bo'lishiga yordam bera olmaydi" degan edi.

Dirijor ijro etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi, nota materialini yaxshi yodlab, o'rganib olish kerak. Biroq kompozitorning badiiy maslagi va mqasadlarini tushuntirib, ochib berishi uchun uning nota yozuvi zahirida yotgan tub ma'noni chuqur anglashi lozim.

Asarni ko'z bilan maqsadga muvofiq emas, uni ichki eshitish va urg'u bera bilish kerak. Partiturani ijro etishdan oldin ichki hissiyot bilan o'rganuvchi va orkestr repitetsiyasi boshlanguncha tinglanadigan narsani aniq biluvchi dirijor-juda chuqur ijodir hodisadir. Zero, bunday dirijor musiqani ijodiy tafakkur yoki fikr sifatida namoyon etadi, u dirijorlik texnikasini puxta o'zlashtirgan bo'ladi. Dirijolik texnikasi esa, mohiyati, ijrochiar jamoasiga ma'lum tashqi belgilar orqali o'zining niyatlari va mqasadlarini yetkazish hamda ularda o'znikidek hissiyotlar uyg'otishdan iborat.

Musiqqa sohasidan yiroq bo'lgan tinglovchiga dirijor mehnati ba'zida oson, texnikasi esa jo'n va oddiylik tuyuladi. U "dirijor bo'lish uchun musiqqa jo'rligida tayoqchani pastga, tepaga ko'tarsa, bas deb o'ylashi mumkin. Vaholanki, dirijor tayoqchasining harakati, uning o'z maqsadlarini ijrochilarga yetkazishning asosiy vazifasidir. Bu butun dunyo dirijorlari o'z mamlakatlari va xorij orkestrkarining ijrochilari bilan muloqot qiluvchi o'ziga xos tildir. Uni barcha orkestr, xorning birdek tushunishlari uchun esa dirijor bu tilni mukammal bilishi lozim.

